UDK 325.111:1 (575.1)

URBANIZATSIYA JARAYONLARINING SHAHARSOZLIK KONSEPSIYALARI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

T.Q. Xoldarov

Maqolada urbanizatsiya jarayonlarining taraqqiyotini o'rganish maqsad qilingan bo'lib, shaharlarning paydo bo'lishi hamda shaharsozlik sohasidagi yangi konsepsiyalarning rivojlanishi o'rganilgan. Qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi kungacha shaharlar taraqqiyoti, uning kelajagi xususida ko'plab qarashlar ishlab chiqilgan. Shaharlar vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida jamiyatning o'sib borayotgan talablariga mos ravishda shaklini o'zgartirib kelgan. Maqolada shaharlarning aholi dunyoqarashi, turmush tarzi va mentalitetiga ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *urbanizatsiya, gipodam sistemasi, ideal shahar, islom arxitekturasi, Yevropa shaharlari, E.Govardning bog' shahar konsepsiyasi, P.Geddesning "konrubatsiya" tushunchasi.*

В статье поставлена цель изучения прогресса процессов урбанизации, изучено развитие новых концепций в сфере появления городов и градостроения. С древних времён до настоящего времени появилось множество взглядов относительно развития городов, их будущего. В процессе возникновения городов в соответствии с требованиями растущего общества изменилась их форма. В статье исследовано влияние городов на мировоззрение населения, его образ жизни и менталитет.

Ключевые слова: *урбанизация, система гипподамов, идеальный город, исламская архитектура, европейские города, концепция города-сада Э.Ховарда, концепция "конрубации" П. Геддеса.*

Globallashuv sharoitida shaharlarning o'rni va ahamiyati keskin tarzda ortib bormoqda. Bu esa shaharlar hayotini o'rganish, undagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash, shaharlar taraqqiyotini ta'minlaydigan har tomonlama tahlil qilingan loyihalarni ishlab chiqish taqozo etilmoqda.

Shaharlarni loyihalash, joylashtirish, transport kommunikatsiyalarini o'tkazish, suv bilan ta'minlash sanitar-gigiyena holatini saqlash kabi ko'plab masalalar xususida qadimgi davrlardan boshlab turli g'oyalar ilgari surilgan. Urbanizatsiya jarayonlari turli hududlarda turli ko'rinishlarda sodir bo'lganligi tufayli bunday qarashlar ham turlicha ekanligi kuzatiladi. Shaharlar qurilishi haqidagi dastlabki yozma va arxeologik ma'lumotlar shahar madaniyatining qadimgi markazi hisoblangan Mesopotamiyaga tegishlidir. Eramizdan avvalgi V asrda tarixchi Gerodot qadimgi davrning eng yirik shaharlaridan hisoblangan Bobil to'g'risida ma'lumot qoldirgan. "U kvadrat shakldagi yirik shahar bo'lgan, undagi keng ko'chalar dunyo tomonlariga qaratilgan va to'g'ri burchak ostida kesishgan. Tepalikda esa hukmdor saroyi joylashgan bo'lib, yon bag'rida joylashgan turar joy kvartallari bilan bog'langan. Quyuq ko'kalamzorlar va ariqlar cho'lning issiq va quruq shamolini yumshatib turgan. Ko'chalarni to'g'ri burchakli loyihalash shahar hududini yaxshi shamollatish imkonini bergan" [1. B. 55].

Ushbu ma'lumot orqali qadimgi shaharlar qurilishida ham ko'plab insoniy ehtiyojlar hisobga olinganligini bilish mumkin. Shaharlarni loyihalashtirishning ijtimoiy yo'naltirilganligi antik shaharsozlikda ham o'z ifodasini topgan. Bu davrda *Gipodam sistemasi* deb nomlanuvchi aniq to'g'ri burchakli prinsipga asoslangan ko'chalar loyihasi keng tarqalgan. Keyinchalik ushbu uslubdan Rim imperiyasi tarkibidagi shaharlarni bunyod etishda ham keng foydalanilgan. "Gipodam loyihasi bo'yicha shahar 10 ming aholi yashashi uchun mo'ljallangan. Shahar aholisi uch qatlamga ajratilib, birinchisi hunarmandlar, ikkinchisi dehqonlar, uchinchisi harbiylardir. Shahar hududi ham uchga bo'lingan bo'lib, birinchi bo'lim muqaddas joylar, ikkinchi bo'lim jamoat joylari, uchinchi bo'lim esa shaxsiy hudud hisoblangan" [2. B. 32].

Gipodam sistemasiga ko‘ra, shahar kvartallarga ajratilgan. Har bir kvartal o‘z infratuzilma obyektlariga ega bo‘lib, aholining o‘zaro muloqoti uchun qulay sharoitlarga ega edi. Ushbu sistema asosida bunyod etilgan shaharlar issiq iqlim sharoitida yaxshi shamollatilgan. Yevropada shaharsozlik nazariyalari taraqqiyotida qadimgi yunon faylasuflarining o‘rni katta. Aflotunning “Davlat” va “Qonunlar” asarlarida davlat va shahar tuzilishi, tarkibi va ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratilgan. Ushbu asarlarda Aflotun shahar o‘lchovlari, boshqaruv va hukmdor xislatlari haqida fikr yuritadi. Aflotun *Ideal shaha*rning asosiy tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy munosabatlarni aytib o‘tdi. Aflotun fikriga ko‘ra, ideal shaharda har bir fuqaro o‘z vazifasiga sidqidildan yondashib, faqatgina faoliyatning bir turi bilan shug‘ullanishi lozim edi. Uning fikricha, “shahar taraqqiyotidagi asosiy omil uni to‘g‘ri boshqarishdir” [3. B. 7]. Arastu o‘zining “Siyosat” asarida shahar, davlatning tuzilishi, tarkibi, aholi soni va mashg‘ulotlari, ayrim inshootlarning vazifalari, shahar joylashgan hudud hamda shahar o‘lchovlari haqida fikr yuritadi.

Feodal munosabatlar davriga kelib, shaharsozlikda ko‘chalarning radial halqali tizimi shakllana boshladi. Bu usul, asosan, feodal qal’asi atrofida hunarmandlar joylashuvi bilan bog‘liq. “O‘rta asrlardagi ko‘plab shaharlar katta yer egalari qasrlari atrofida joylashgan. Shahar aholisining asosiy mashg‘uloti qasr egalariga mahsulot yetkazib berish hisoblangan va aholining asosiy daromad manbai sanalgan” [4. B. 89].

Sharqda, xususan, O‘zbekiston hududidagi qadimgi shaharlarni loyihalashtirishda hududning tabiiy iqlimiy o‘ziga xosliklari hisobga olingan. “Amudaryoning janubiy tomonida bunyod etilgan So‘g‘d, Erkqal’a, Yelkantepa shaharlari va boshqalar aylana shaklida, shimoldagi shaharlar – Yerqo‘rg‘on, Elaton shaharlari to‘g‘ri burchakli loyiha asosida bunyod etilgan” [5. B. 9].

Qadimgi sharq shaharlari rivojlanishiga savdo yo‘llarining paydo bo‘lishi katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, dastlabki sharq va g‘arbni bog‘lovchi transkontinental savdo yo‘li hisoblangan Buyuk ipak yo‘lining shaklanishi mintaqa shaharlari taraqqiyotiga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Bu davr shaharlari o‘zining geografik joylashuvi, iqlim sharoitlari, aholining mashg‘ulotlari turidan kelib chiqib turli mahsulotlarni ishlab chiqargan va o‘ziga xos klasterlar ko‘rinishida faoliyat olib borgan. “Termiz sovun va qayiqlari, Buxoro gilam, yumshoq matolari bilan mashhur bo‘lsa, Samarqand turli matolar, bronzadan ishlangan qozonlar, egar-jabduq va boshqa mahsulotlari bilan ajralib turgan” [5. B. 13].

Iqtisodiy taraqqiyot shaharlar farovonligiga zamin bo‘ldi. O‘rta Osiyo shaharlarida xo‘jalik ishlari yuqori darajada tashkil etilgan va doimo hukmdorlar nazoratida bo‘lgan. Ilm-fan taraqqiyoti shaharlardagi maishiy muammolarning bartaraf qilinishiga asos bo‘lgan. Mintaqaning iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, suv bilan ta’minlash ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy, ma’naviy va ilmiy aloqalarning rivojlanishi aholining turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qilgan. Mintaqa shaharlarining rivojlanishiga aholining ma’naviy va ma’rifiy saviyasi asos bo‘lgan.

Bu davrda turli etnik guruhlar, turli madaniy, diniy qadriyatlarning yonma-yon hayot kechirishi o‘zaro munosabatlarda bag‘rikenglik g‘oyalarining ustuvorligidan dalolat beradi. Qadimgi Sharq shaharlarida dinlararo munosabatlar ham yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi barqarorlikni ta’minlashda asosiy omillardan biri edi. Sharqda shaharlar ham ma’muriy, ham diniy-ma’rifiy markazlar sifatida faoliyat olib bordi. Ayniqsa, o‘rta asrlarga kelib islom dini va ta’limotining tarqalishi shaharlarning ahamiyati va jamiyat ma’naviy rivojlanishiga katta turtki berdi. Yirik shaharlarda kutubxonalar, madrasa va maktablar paydo bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, shaharlarni ta’lim markazlariga aylantirdi. Islomiy qadriyatlarning kirib kelishi aholi hayotining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon, o‘z navbatida, shahar muhitini ham o‘zgartirdi. Shaharlar qiyofasida islom arxitekturasi yetakchi o‘ringa ko‘tarildi. Shaharlardagi sanitar-gigiyenik holat yaxshilandi. Atrof-muhit tozaligi, obodonlashtirish ishlariga e’tibor kuchaydi. Bu davrdagi eng katta o‘zgarish aholi dunyoqarashida sodir bo‘ldi. Aholi o‘rtasida islomiy qarashlar chuqur kirib bordi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi islom an’analari asosida boyib bordi. Turli mamlakatlar o‘rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar o‘rnida o‘zaro aloqalar – ham iqtisodiy, ham siyosiy va ilmiy axborot ayriboshlash yaxshilandi. Xalqaro aloqalarning rivojla-

nishi mamlakatlar iqtisodiy ahvoliga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Dunyo ilm-fani, ma'rifati va e'tiqodiga ulkan ta'sir ko'rsatgan shaharlar sifatida Makka, Madina, Bag'dod, Damashq, Hirot, Samarqand, Buxoro, Termiz, Urganch, Toshkent va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Qadimgi Sharq shaharlari keyingi davr shaharlari rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Antik shaharlar va ba'zi o'rta asr Yevropa shaharlari Osiyo shaharsozligidan shimoliy Yevropa shaharsozligiga o'tish bosqichi hisoblanadi [4. B. 66–67].

XIX asr oxiri XX asr boshiga kelib, shaharlar tez rivojlana boshladi. Buning asosiy sababi sanoat ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi bo'ldi. Shaharlar ahamiyatining ortib borishi natijasida urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish va shaharsozlikda yangicha qarashlar shakllandi. Yevropaning yirik shaharlari – Vena, Parij, Berlin va London shaharlarini qayta rejalashtirish uchun loyihalar ishlab chiqildi. Dunyo miqyosida ekologik holat izdan chiqishi sababi shaharlarni qurish va rekonstruksiya qilishda tabiiy muhit komponentlarini saqlash, ekologik hamda sanitar-gigiyenik holatni yaxshilashga intilish kuchaydi. Urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi natijasida shahar aholisining soni tez ortib bordi. Bu esa shahar infratuzilmasiga bosimning ortishiga olib keldi. Endilikda shaharlar rivojlanish markazlarigina emas, balki insoniyatning keyingi hayotini xavf ostiga qo'yuvchi muhitga aylanib bordi. Bunday muammolarning kelib chiqish sabablaridan biri shaharsozlik sohasida yo'l qo'yilgan xatolar evaziga yuzaga chiqa boshladi.

XIX asr shaharsozligining asosiy xususiyatlaridan biri kamroq joyga ko'proq odamni joylashtirishga intilishda ko'rinadi. Bino va inshootlarning ko'plab qurilishi natijasida landshaft buzilishi daraxtlarning nobud bo'lishiga olib keldi. Bu esa inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, insondagi agressivlikni oshirdi. Oqibatda ushbu jarayonlar ijtimoiy munosabatlarda o'z ifodasini topdi.

Yangi shaharsozlik konsepsiyalarini ishlab chiqishda shu va boshqa muammolarni hal qilish zarurati kelib chiqdi. Kelajak shaharlarni loyihalash uchun hozirgi ahvolga obyektiv baho berish va alohida o'tmish shaharsozlik konsepsiyalarini ko'rib chiqish lozim. Shaharsozlik sohasida sotsial-utopistlar orzulari insonning garmonik rivojlanishi va ijtimoiy adolatga yordam beradigan shaharlar yaratishga asoslangan edi. Utopistlar g'oyalari shaharsozlikning keyingi rivojlanishiga, ayniqsa, shaharlar aholisini me'yorlashtirish muammolari bo'yicha maishiy xizmat ko'rsatishni umumlashtirish, bog'-shaharlar yaratish g'oyalari paydo bo'ldi.

1898-yili E.Govard radial halqali, tarixiy tarkibli *bog'-shahar g'oya*sini taklif qildi. Shahar keng radial xiyobonlar bilan olti qismga aylana shaklda ajratilgan. Markaziy ma'muriy-jamoat maydoni park bilan o'rab olingan. Turar-joy halqasi ichida yashil belbog' bo'lib, unda maktablar va sport inshootlari joylashgan. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi va aholi dam olishi uchun katta shaharning tashqi qismi ajratilgan. Shu tarzda markaziy park va yashash hududining yashil belbog'i o'zaro va shahar atrofi hududi bilan xiyobonlar orqali bog'lanib, yagona sistemani tashkil etadi. Govardning nazariy modeli har bir alohida holat uchun yechim topish imkonini va shaharsozlik sohasida yangi davrni boshlab berdi.

E.Govardning bog'-shahar konsepsiyasida ijtimoiy omillarga ham alohida e'tibor qilingan. Unga ko'ra, shahar taraqqiyotiga insoniy munosabatlar, aholining iqtisodiy salohiyati, ma'naviy darajasi hamda faolligi belgilovchi ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda E.Govardning bog'-shahar g'oyasidan shaharlar tarkibidagi kichik tumanlarni tashkil etishda foydalanish mumkin. "Bog'-shahar" g'oyasining asosiy prinsiplari ekologik muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, barcha ijtimoiy obyekt va muassasalarga yayov borish imkoniyati mavjud.

Radial halqali shahar rejasining o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Birinchidan, ushbu konsepsiyaga ko'ra, shahar aholisi 32 ming kishidan ortmasligi kerak. Ikkinchidan, bunda shaharning keyingi o'sishi cheklanadi. Uchinchidan, aholi turar-joylari bilan o'ralgan shahar markazi rivojlanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi va sanoat korxonalarining o'sishi oqibatida shahar korxonalar ichida qolib ketishi mumkin.

E.Govardning "Bog'-shahar" g'oyasiga yirik shaharlarni tark etib, tabiat qo'ynidagi kichik shaharlarni tashkil qilishga yo'naltirilgan deurbanizatsiya jarayonining asosi sifatida qaralishi mumkin. E.Govard tomonidan ushbu g'oyani ishlab chiqilishiga asosiy sabab sifatida Londonning nazoratsiz kengayib borishi, narxning

ortib ketishi va aholining katta qismi maishiy qulayliklardan mosuvo bo‘lganligini aytib o‘tish mumkin. “Londonning kengayib borishi ekologik vaziyatni og‘irlashtirdi, asosiy muammolardan biri tutun edi. Sanoat korxonalarining tez ko‘payib borishi ko‘mir ishlatilishini ko‘paytirdi, natijada shahar havosi o‘ta ifloslanib ketdi. 1800-yilda Londonda 10 mln. tonna ko‘mir sarflangan, shuning uchun ushbu shahar tutun shahar nomini olgan edi” [6]. Shunga o‘xshash muammolar Yevropaning barcha yirik shaharlarida mavjud edi. Bundan tashqari, shaharlardagi sanitar-gigiyenik holat ham og‘ir ahvolda bo‘lgan. “Hozirgi kunga kelib, Londonda 32 bog‘-shaharchalar tashkil etilgan. Ushbu g‘oya asosida Germaniya, Belgiya, Italiya, Avstriya va Ispaniyada bog‘-shaharlar tashkil etilgan” [7].

Ushbu g‘oyaning ishlab chiqilishi shaharsozlikda katta ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi va yangi urbanizm konsepsiyasi shakllanishiga asos bo‘ldi. Shaharsozlik g‘oyalarining rivojlanishida Patrik Geddesning xizmatlari katta bo‘ldi. U 1915-yilda hududiy loyihalash asoslarini ishlab chiqdi. P.Geddes shaharga inson evolyutsiyasi vositasi sifatida qaradi va shahar muhitining inson ongi va tafakkuri taraqqiyotidagi ahamiyatini yuqori baholadi. Unga ko‘ra, shaharlarni loyihalashtirishda hududning tabiiy o‘ziga xosliklarini hisobga olish, shundagina inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash mumkin. Tabiiy muhit ta’sirida ijtimoiy munosabatlar insoniy ehtiyojlarga yo‘naltiriladi. Bu jarayon aholining turmush tarzi, faoliyat turlari va kasb-hunarlarida o‘z ifodasini topadi. Zotan, “Shaharlar o‘zi joylashgan hududning alohida belgilarini o‘zida ifoda etib, aholining muayyan xarakteri, mentaliteti, mashg‘ulotlari, asosiy ishlab chiqarish sohalari shahar arxitekturasi va landshaftida namoyon bo‘ladi” [8. B. 45].

Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy munosabatlar, aholi o‘rtasidagi aloqalarda ham tabiiy muhitning ta’sirini sezish mumkin. Umuman olganda, tabiiy muhit insonning ruhiy holatiga ham ta’sir o‘tkazadi. Shahar muhitining tabiat bilan uyg‘unligi insondagi optimizmni kuchaytiradi, unga estetik zavq bag‘ishlab, ijodkorlik xususiyatini kuchaytiradi. Ushbu jihat aholi salomatligida ham o‘z ifodasini topadi. Masalan, Rossiyaning Murmansk shahri tepaliklarida joylashgan shahar ko‘chalarida yurishda asosan zinapoyalarda harakatlanishga to‘g‘ri keladi. Aynan shu jihat yurak qon-tomir va nafas olish tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada bu shaharda bunday kasalliklar boshqa shaharlardagiga qaraganda ancha kam uchraydi.

Patrik Geddes biologiya va evolyutsiya qonunlarini shaharsozlik sohasiga tatbiq qildi. U shaharlar kengayishi va rivojlanishi jarayonida tarixiy bino va inshootlarning buzilishiga, tabiiy muhitga bepisand yondashishga qarshi chiqdi. Uning fikricha, insoniyat evolyutsiyasining keyingi bosqichi shaharlar bilan bog‘liq. Demak, shaharlar ham insonning ortib borayotgan ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib borishi kerak. Lekin bu rivojlanish shaharlardagi tarixiy obidalar va tabiiy muhit hisobiga bo‘lmasligi kerak, hudud o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib, eng optimal yechimlarni ishlab chiqish zarur. Negaki, me’moriy yodgorliklar inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib, vorisiylikni namoyon qiladi. Tabiat esa shahar muhiti bilan uyg‘unlashganda insondagi emotsional zo‘riqishlarni kamaytiradi, undagi ijobiy xislatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shaharlarni bezatishda hudud iqlimidan kelib chiqib, turli fasllarga mo‘ljallangan daraxtlar, gullar va boshqa o‘simliklardan foydalanish yaxshi natija berayotgani ma’lum. Bundan tashqari, shaharlar hududidagi suv havzalari atroflarini obodonlashtirish, dam olish shoxobchalarini tashkil etish ham yaxshi natijalar bermoqda.

Mamlakatimizda ham bu borada katta ishlar olib borilmoqda. Davlat rahbarining topshirig‘iga ko‘ra, shaharlar hududidan oqib o‘tuvchi daryolar, kanallar va ariqlar qirg‘oqlari tozalanib, dam olish, sayr qilish va sport bilan shug‘ullanish uchun imkoniyatlar yaratildi. Ushbu ishlarni rejali tashkil etishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori qabul qilindi.

P.Geddes tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar hozirgi kunga kelib ham o‘z ahamiyatini saqlab, shaharsozlikdagi hamda shahar hayotini insoniy ehtiyojlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilishdagi yangicha qarashlarga asos bo‘lmoqda. P.Geddes, L.Virt, M.Veber, G.Zimmellar shahar hayotini kompleks o‘rganish asoschilaridan hisoblanadilar. Geddesning hududiy loyihalash konsepsiyasi asosida shahar hududi, tarixi, mintaqa va yaxshi xulq-atvorga ega mukammal fuqaroning o‘zaro uyg‘unligi g‘oyasi yotadi. Aynan u zamonaviy urbanizmning aso-

siy g‘oyalaridan biri sanalgan “shaharlarni loyihalashtirish – bu nafaqat muhitni, balki shahar fuqarolarini tarbiyalashdir” degan fikrni ilgari surib, har qanday shahar taraqqiyotida ijtimoiy omil muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

P.Geddes “konrubatsiya” tushunchasini ishlab chiqdi. Ushbu tushuncha bir nechta shaharlardan tashkil topgan hamjamiyatni anglatadi. “Konrubatsiya” so‘zi lotin tilidagi “*con*” birgalikda va “*urbs*” shahar so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “birgalikdagi shahar” ma’nosini anglatadi. Ushbu tushunchaning aglomeratsiya tushunchasidan farqi shuki, aglomeratsiyalar bir yirik shahar atrofidagi kichik shaharlarning o‘zaro bog‘lanishi hisoblanib, barcha asosiy funksiyalar markaz shahar tomonidan amalga oshiriladi, konrubatsiyaga birlashgan shaharlarning hammasi alohida tarzda muayyan vazifalarni bajaradi.

Konrubatsiyaga misol sifatida Niderlandiyaning g‘arbida joylashgan Ramsdat konrubatsiyasini aytish mumkin. U Amsterdam, Roterdam va Gaaga shaharlarini birlashtirgan va 7,5 mln. aholiga ega. GFRdagi Rur konrubatsiyasi 11,5 mln. aholiga ega bo‘lgan [9]. Bunday hamjamiyatda har bir shahar o‘ziga xos vazifalarni bajarib, bir-birini to‘ldirib turadi.

P.Geddes shaharlarni loyihalashtirishda nafaqat tashqi ko‘rinish, balki maishiy qulayliklarga ham e’tibor qaratib, shaharning keyingi o‘sishini hisobga olish zarurligini aytib o‘tgan. Shaharlarni qurish, rekonstruksiya qilishda har tomonlama o‘ylab, ko‘plab empirik ma’lumotlarni umumlashtirgan holda faoliyat olib borish kerakligi ayni haqiqat. Patrik Geddesning shaharsozlik konsepsiyasi jamiyat ravnaqiga ijtimoiy yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. U shaharlarni loyihalashtirishda birinchi navbatda inson ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson o‘zligini namoyon qilishi, dunyoqarashi rivojlanishiga ko‘maklashuvchi shahar muhitini yaratishni orzu qilgan. Yirik shaharlardagi ekologik vaziyatning og‘irlashuvi inson salomatligi va ruhiy holatiga salbiy ta’sirini anglagan holda shaharlarda yashil belbog‘ yaratishga intilgan. “Tabiiy landshaft buzilgan, sanoat korxonalari, ofislar, xarobazorlar bilan to‘lib-toshgan megapolislarda insoniyat taraqqiy etmaydi” [10].

OAV orqali tarqatilayotgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, hozirgi kundagi ko‘plab yirik shaharlarda ekologik muammolar maishiy hayotning og‘irlashuvi, o‘rta tabaqa vakillari istiqomat qiladigan tumanlardagi jinoyatchilikning ko‘payishi, yoshlarda turli diniy, siyosiy guruhlarga qo‘shilish, shafqatsizliklarni, sharmandalikni targ‘ib qilish va boshqa shu kabi ko‘plab g‘ayriinsoniy xatti-harakatlarni keltirib chiqarmoqda. Aholi o‘rtasidagi iqtisodiy differensatsiyaning ortib borishi turli tabaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z aksini topmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, rivojlangan g‘arb mamlakatlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. “G‘arb sivilizatsiyasi kishisi dengizda baliq va kitlardek suza oladi, burgut-u boshqa qushlardek osmonda ucha oladi. Bularni mohirlik bilan eplayapti. Lekin yer yuzida inson o‘laroq to‘g‘ri yurishga uning kuchi yetmayapti” [11].

Shaharsozlik nazariyalari rivojlanishiga yunon arxitektori Konstantinos Doksiadis ham sezilarli hissa qo‘shdi. U kelajak shahar taraqqiyotining – butun yer yuzini birlashtiradigan global shahar vujudga kelishining nazariy asoslarini ta’riflab berdi. Doksiadis o‘z tadqiqotlarida insonning hayotiy ehtiyojlari uchun mukammal qulayliklarga ega ulkan makonlarni tashkil etish muammolarini qamrab oladi. Doksiadis tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy darajasi turlicha bo‘lgan shaharlarning yagona megapolisga birlashib ketishi haqidagi futuristik qarashlarni anglash mumkin.

XXI asr oxiri kelajak shahari muammosini tadqiq qilib, Doksiadis “egumenopolis” – shaharlarning gigant aglomeratsiyalarga birlashuvi, yagona global shahar shaklidagi kelajak aholi joylashuvi nazariyasini oldinga surdi. Doksiadis o‘zining kelajak shahri nazariy asoslarida vaqt omilini asosiy deb tan oladi. U monotsentrik rejali dinamik shahar g‘oyasini taklif qiladi, shaharning o‘sishi deganda, bir tomonlama rivojlanuvchi chiziqli tuzilmaga asoslangan yirik aholi punktlarining paydo bo‘lishini nazarda tutadi. Doksiadis tomonidan shahar evolyutsiyasi quyidagicha tasvirlangan: o‘tmish statik shahar shahar tumanlarini qayta qurish orqali zamonaviy shaharga aylanadi va shunday qilib uning markazi kengayib boradi. Shaharlar markazida ko‘plab bino inshootlarning qurilishi tarixiy obidalarga zarar yetkazadi, negaki muayyan tarixiy inshootning yolg‘iz qolishi, uning atrofidagi tarkibiy qismlari, ya’ni mahallalar, guzarlar, maydonlarning yo‘q bo‘lib ketishi

inshootning badiiy estetik va tarixiy ahamiyatini kamaytirib, aholi ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holni to‘g‘rilashning yagona yo‘li – shahar tabiiy o‘sishining shunday yechimini qidirish kerakki, unda keyingi elementlar rivojlana turib, mavjudlarini yo‘q qilib yubormaslik kerak, ya’ni shaharning butun hududi va markazining asta-sekin, to‘siqsiz rivojlanishi ta’minlanishi lozim [12].

Doksiadis nazariyasi bo‘yicha, dinamik shahar markazi tarkibi uning doimo o‘sishi talablariga javob berishi kerak. Markaz ilgari tanlangan o‘q bo‘yicha erkin rivojlanishi lozim, unda avval shaharning markaziy yadrosi joylashadi, u keyinchalik bir yo‘nalishda rivojlanadi. “Doksiadis bo‘yicha, shahar o‘z rivojlanishida to‘rtta bosqichdan o‘tadi: “dinapolis” (bir yo‘nalishda rivojlanuvchi monotsentrik shahar) va “dinametropolis” (bir nechta “dinapolis”larning parallel rivojlanishi)dan “dinamegapolis” (gigant shaharlarning rivojlanishi) va shahar tuzilmasining oxirgi bosqichi “ekumenopolis” bo‘lib, bu yer shari butun kontinentlarini qamrab olgan shaharlar ko‘rinishidagi bir tekis va muvozanatli aholi joylashuvi shakli vujudga keladi” [12]. Ekumenapolis yunon tilida “butun dunyo”, “yashash hududi” va “shahar” ma’nosini anglatib, ulkan aglomeratsiya yer yuzidagi bir butun yashash hududini ifodalaydi [12]. Doksiadis fikriga ko‘ra, ekumenapolis global aglomeratsiya sifatida rivojlanib borib, urbanizatsiya jarayonlarining oxirgi bosqichi bo‘ladi. U shaharlarning tez rivojlanib borishi natijasida shahar aholisi misli ko‘rilmagan darajada ko‘payib borishi, shuning uchun shaharlarni bunyod etishda aholi sonining ortib borish faktorini hisobga olish zarurligini ta’kidlab o‘tgan. To‘g‘ri, Doksiadis taxmin qilgan aholining 10 baravar ko‘payishi haqidagi fikrlar o‘z tasdig‘ini topmadi. Masalan, hozirgi kunda tarqatilayotgan ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzida 8 mlrd. aholi istiqomat qilmoqda.

BMT bashoratiga ko‘ra, 2050-yilda yer yuzida 9,6 mlrd. aholi yashaydi. Lekin shuni ham aytib o‘tish joizki, ko‘plab yirik shaharlar, ayniqsa, shahar atrofidagi yotoq tumanlarida aholi sonining xavfli darajada ko‘payib borayotgani hozirgi kunda ko‘plab shaharlar oldida turgan muammolardan sanaladi. Misol sifatida Hindiston va Lotin Amerikasidagi ayrim shaharlarni aytib o‘tish mumkin.

Doksiadisning dinamik shahar nazariyasiga ko‘ra, ekumenopolis bosqichining statikligi paradoksal bo‘lib, unda shahar o‘sishi to‘la muvozanatga yetgach to‘xtaydi. Bu g‘oyaning birinchi salbiy tomoni – u shaharning rivojlanish qonuniyatlari hamda shaharsozlikning ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy-madaniy sharoitlarini hisobga olmay ishlab chiqilgan. Ikkinchidan, aholi joylashuvini tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va aholining etnik xususiyatlarini, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini hisobga olmay rejalashtirishdir. Bundan tashqari, turli mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi siyosiy, diniy va ma’naviy qadriyatlardagi tafovutlar ham e’tibordan chetda qolgan. Lekin ma’lum kamchiliklariga qaramay, uning qarashlarida shaharlar taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ko‘plab muammolarni hal etish, shahar muhitini insonning ehtiyojlariga moslashtirish g‘oyalari mavjud. U shahar hayotini nafaqat nazariy jihatdan tahlil qildi, balki amaliy yechimlarni ishlab chiqib amaliyotga tatbiq qildi.

Doksiadis o‘z g‘oyasini Pokistonning yangi poytaxti Islomobod shahri bosh rejasida amalga oshirdi, shuningdek, uning g‘oyasi u tomonidan Sudanning poytaxti – Xartum shahrini loyihalashda o‘z aksini topdi. Doksiadis tomonidan ishlab chiqilib, alohida fan sifatida rivojlanib borayotgan *ekistika* aholi yashash punktlarini kopleks o‘rganishda yangi yo‘nalish sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Ekistika aholi va tabiiy muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash maqsadida aholi yashash hududlarining eng qulay rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Ekistika ijtimoiy yo‘naltirilganligi bilan aholining ehtiyojlari, ayniqsa, piyodalar uchun qulayliklar yaratishga e’tibor berilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ekistika hozirgi zamon shaharsozligiga yangicha qarashlarni olib kirdi.

Hozirgi kunda ham arxitektorlar ideal shaharlar yaratish g‘oyalarini ilgari surishmoqda va bu g‘oyalarda ekologik zararsizlik va tozalik birinchi o‘rinda turibdi. Albatta, ekologik soflikni saqlab qolish uchun optimal ko‘kalamzorlar tizimini yaratish va chiqindilar chiqarishni nazoratga olish muhim. Arxitektorlar bu masalani hal qilish uchun harakat qilishmoqda va qator yutuqlarga erishmoqda. Bundan tashqari, shaharlarni insonlararo muloqot muhiti sifatida saqlab qolish va ijtimoiy munosabatlarda ham qator muammolarni hal qilish lozim.

Adabiyotlar:

1. *Геродот*. Историки античности. В двух томах. Том 1. – Москва: “Правда”, 1989. – 626 с.
2. *Груза И.* Теория города / Сокращенный перевод с чешского: Л.Б. Мостовая. – Москва: Стройиздат, 1972. – 246 с.
3. *Платон*. Собрание сочинений. В 4 томах. Том 1. – Москва: Издательство “Мысл”, 1971. – 657 с.
4. *Вебер М.* Избранное. Образ общества / Перевод с немецкого: М.И. Левиной. – Москва : Юрист, 1994. – 704 с.
5. *Атамирзаев О., Генштеке В., Муртазаева Р., Солиев А.* Историко демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Ташкент. Университет 2002. – 130 с.
6. Дизайн. Материалы о красивых вещах, логотипах, веб-дизайне. [Электронный ресурс]. URL: Vc.ru/design. (Мурожаат этилган сана: 03.11.2022)
7. Новости дизайна и архитектуры. [Электронный ресурс]. URL: Design-mate.ru (Мурожаат этилган сана: 03.11.2022)
8. *Щедровицкий П.Г*. Философия развития и проблемы города. Экология города и проблемы управления. – Москва: Картолитография, 1989. – 184 с.
9. *Джентрификация*. [Электронный ресурс]. URL: https.Картаслов.ru. (Дата обращения: 15 .11.2022)
10. Wikipedia. Ru frwiki.wiki/wiki/ [Электронный ресурс]. URL: (Дата обращения: 16 .11.2022)
11. Шайх Юсуф Қарзовий. Фикхул усра ва қазаёл маръа. – Тошкент: “Ал-ҳилол”, 2023. – 184 б.
12. *Высшая школа урбанистики* имени А.А.Высоковского. *Константинос Доксиадис*: *жизнь* и наследие. 2015. [Электронный ресурс]. URL: https://urban.hse.ru> announcements (Дата обращения: 08.01.23)
13. Wikipedia. https//proza.ru [Электронный ресурс]. URL: (Дата обращения: 18 .11.2022)
14. Общенациональный научно-образовательный интерактивный энциклопедический портал. [Электронный ресурс]. URL: bigens.ru https//bigens.ru (Дата обращения: 18. 11. 2022)

IMPACT OF URBANIZATION PROCESSES ON THE DEVELOPMENT OF URBAN CONCEPTS

T.K. Kholdarov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 30-37.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: Urbanization, hippodamic system, ideal city, Islamic architecture, European cities, E. Howard’s concept of the garden city, P. Geddes’ concept of “conrubation”.

In the process of creation and development, cities changed their appearance in accordance with the growing demands of society. Cities, in turn, influence the lifestyle and mentality of their inhabitants. One of the main factors in the emergence and development of cities is the level of social relations, the activity of the population, as well as the geographical location and natural environment cities. From this point of view, cities are a mirror of the country and territory, and the spiritual and educational level of the country’s population provides information about the economic potential. Therefore, from ancient times to the present day, there have been many views on the development of cities and their future.

Even now, architects are putting forward the ideas of creating ideal cities, and in these ideas, ecological harmlessness and cleanliness are in the first place. Of course, to preserve ecological purity, it is important to create an optimal system of greenery and to control the emission of waste. Architects are trying to solve this problem and are making a number of achievements. In addition, it is necessary to preserve cities as an environment of interpersonal communication and solve a number of problems in social relations. In the context of globalization, the role and importance of cities is increasing dramatically. This requires studying the life of cities, identifying their positive and negative aspects, and developing comprehensively analyzed projects that ensure the development of cities.

Since ancient times, various ideas have been put forward regarding many issues such as design-

ing, placing cities, carrying out transport communications, water supply and sanitary hygiene. In the east, in particular, in the design of ancient cities in the territory of Uzbekistan, the natural climatic peculiarities of the region were taken into account. “The cities of Sogd, Erkkala, Elkantepa, etc. built on the southern side of Amudarya were built in the form of a circle, the cities of Erkurgan and Elaton in the north were built on the basis of a rectangular project” [5. P. 9].

Therefore, cities should also develop according to the growing needs of people. But this development creates the need to develop the most optimal solutions based on the characteristics of the area, not at the expense of historical monuments and natural environment in the cities. After all, architectural monuments are important in the life of a person and society and show succession. Nature, when combined with the urban environment, reduces emotional stress in a person and creates a basis for the development of positive qualities in a person. It is known that the use of trees, flowers and other plants for different seasons, depending on the climate of the area, gives good results in the decoration of cities. In addition, the improvement of water bodies in the territory of the cities and the creation of recreation centers is also giving good results.

References:

1. Geradot. (1989) *Istoriki antichnosti* [Historians of antiquity]. In 2 volumes. Vol. 1. Moscow: “Pravda”.

2. Gruza, I. (1972) *Teoriya goroda* [Theory of the city]. Moscow: Strojizdat.

3. Platon. (1971) *Sobranie sochinenij* [Collected works.]. In 4 volumes. Vol. 1. Moscow: Izdatel’stvo “Mysl”.

4. Veber, M. (1994) *Izbrannoe. Obraz obshchestva* [Favorites. Image of society]. Translation from German: M.I. Levina. Moscow : Yurist.

5. Atamirzaev, O., Genshteke, V., Murtazaeva, R., Soliev, A. (2002) Istoriko demograficheskie ocherki urbanizacii Uzbekistana [Historical and demographic essays on the urbanization of Uzbekistan]. Tashkent. Universitet.

6. Dizajn. Materialy o krasivyh veshchah, logotipah, veb-dizajne [Design. Materials about beautiful things, logos, web design]. [Online]. Wikipedia. URL: Vc.ru/design. (Date of Access: 03.11.2022)

7. Novosti dizajna i arhitektury [News of design and architecture]. [Online]. URL: Design-mate.ru (Date of Access: 03.11.2022)

8. Shchedrovickij, P.G. (1989) *Filosofiya razvitiya i problemy goroda. Ekologiya goroda i problemy upravleniya* [Philosophy of development and problems of the city. City ecology and management problems]. Moscow: Kartolitografiya.

9. Dzhentrifikaciya. [Online]. Wikipedia. URL: https.Kartaslov.ru. (Date of Access: 15 .11.2022)

10. Ru frwiki.wiki/wiki/ [Online]. Wikipedia. URL: (Date of Access: 16 .11.2022)

11. Shayx Yusuf Qarzoviy. (2023) Fikxul usra va qazayol mar’a [Fikkhul usra va qazayol mara]. Tashkent: “Al-hilol”.

12. (2015) Vysshaya shkola urbanistiki imeni A.A. Vysokovskogo. Konstantinos Doksiadis: zhizn’ i nasledie [Higher School of Urbanism named after A.A. Vysokovsky. Konstantinos Doxiadis: life and legacy]. [*Online*]. URL: https://urban.hse.ru> announcements (Date of access: 08.01. 23)

13. Wikipedia. https//proza.ru [Online].URL: (Date of Access: 18 .11.2022)

14. Obshchenacional’nyj nauchno-obrazovatel’nyj interaktivnyj enciklopedicheskij portal [National scientific and educational interactive encyclopedic portal]. [Online]. URL: bigens.ru https//bigens.ru (Date of Access: 18.11.2022)

Muallif haqida ma’lumot:

XOLDAROV To‘linjon Qodirjonovich – Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi doktoranti. E-mail: xoldarov7575@mail.ru